

ЮРТНИНГ КУЧИ — БИРЛИКДА, ҚАДРИ ЭСА ТИНЧЛИКДАДИР!

Ш.МИРЗИЁЕВ,  
Ўзбекистон Республикаси Президенти.

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



# Vaziyat

2024 йил  
05 сентябрь  
№ 36 (977)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

## МУКОФОТЛАР ВА ҲАРБИЙ УНВОНЛАР ТОПШИРИЛДИ



Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллиги муносабати билан Фавқулодда вазиятлар вазирлигида тантанали тадбир ўтказилди.



Тадбирда сўзга чиққан Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев байрам муносабати билан фахрийлар, ҳарбий хизматчилар ва хизматчиларни қизгин қутлади.

– Бугун юртимизнинг барча гўшасида “Бир бўлсак – ягона халқмиз, бирлашсак – ватанмиз!” – деган эзгу ва олийжаноб ғоя кезиб юрган шу кунларда истиқлол неъматининг қанчалар улуғ ҳамда қадрли эканлиги яна бир қарра яққол намоён бўлмоқда, – деди А.Қўлдошев. – Қайд этиш керакки, ўтган қисқа давр мобайнида жонажон Ўзбекистонимиз суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат сифатида шаклланиб, жаҳон ҳамжамиятидан муносиб ўрин эгаллади, том маънода, улкан тараққиёт йўлини босиб ўтди.

Тадбир давомида бир гуруҳ ҳарбий хизматчиларга давлат мукофотлари, эсдалик совғалари, шунингдек, ФВВ Академияси қошидаги офицерлар тайёрлаш курсини тамомлаган оддий аскар ҳамда сержантлар таркибида шартнома асосида хизмат қилаётган олий маълумотли ҳарбий хизматчиларга дастлабки офицерлик – “лейтенант” ҳарбий унвони тантанали равишда топширилди.

Таъкидланганидек, жамиятимизнинг барча жабҳасида амалга оширилаётган жўшқин

испоҳотлар жараёнида вазирлигимиз тизими вакиллари ҳам фаол иштирок этиб, халқимиз ишончи ва эътиборини қозониб келмоқда. Б Тадбирнинг бадиий қисмида ФВВ Академияси оркестри томонидан ижро этилган Ватанни мадҳ этувчи куй-кўшиқлар иштирокчиларга байрамона кайфият бағишлади.



Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллиги муносабати билан ҳарбий хизматчилар ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида"ги фармонида мувофиқ, Фавқуллода вазиятлар вазирлигининг бир гуруҳ ходимлари давлат мукофотлари билан тақдирландилар.

### “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган қишлоқ хўжалиги ходими” фахрий унвони



Новицкий Зиновий Богданович – Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти катта илмий ходими Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги ҳаракатдаги захира офицери.

### “Мардлик” ордени билан



Шарипов Исмоил Маҳмадзикович – Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Республика кутқарув маркази бошлиғи.

### “Жасорат” медали билан



Шонусратов Ҳасан Шотуйғунович – Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Республика кутқарув маркази отряд командири.



Алимбаев Марат Толипжонович – Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Республика кутқарув маркази отряд катта йуриқчи-кутқарувчиси.



Алимов Шерзод Раҳматуллаевич – Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Республика кутқарув маркази отряд катта уста-кутқарувчиси.

### “Шуҳрат” медали билан



Усмонов Дилмурод Тўхтабоевич – ҳаракатдаги захира офицери, полковник, Тахтақўпир туманидаги «Орол-агро» масъулияти чекланган жамияти бош директори, Қорақалпоғистон Республикаси.



Ускенбаев Тимур Аристанбекович – Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Республика кутқарув маркази отряд катта уста-кутқарувчиси.

Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги раҳбарияти ва шахсий таркиби давлат мукофоти билан тақдирланган сафдошларимизни самимий муборакбод этади.

## МУРОЖААТЛАР ЕЧИМ ТОПМОҚДА

Урганч ҳарбий прокуратураси томонидан Ҳазорасп туманида оммавий сайёр қабул ўтказилди.

Унда тегишли ташкилот ва идоралардан жалб этилган мутахассислар иштирокида ҳарбий хизматчилар, ходимлар, уларнинг оила аъзолари ва ёшлар тингланди. Жараёнда 23 та мурожаатдан 4 таси ижобий ҳал этилди, 7 таси юзасидан ҳуқуқий тушунтириш берилди. Ечими вақт талаб этадиган 12 та мурожаат юзасидан масъулларга тегишли кўрсатмалар берилиб, ижроси назоратга олинди.

**Азиз АЛИМҚУЛОВ,**  
Урганч ҳарбий прокуратураси катта  
терговчиси, адлия капитани.

## ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАНДИ

Наманган шаҳар ҳокимлиги фаоллар залида умумтаълим ва касб-ҳунар мактаблари ҳамда академик лицейларда чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фани ўқитилишини ташкил этишга доир масалаларга бағишланган мулоқот ўтказилди.

Унда шаҳар ҳокимлиги, Наманган ҳарбий прокуратураси, вилоят Мудофаа ишлари бошқармаси вакиллари, ёшлар етакчилари ҳамда чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фани ўқитувчилари иштирок этдилар.

Мулоқотда тегишли мутасаддиларга ёшларда ватанпарварлик туйғуларини шакллантириш, мактаблардаги ўқув хоналарини жиҳозлаш ва чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фани ўқитилиши бўйича аниқ вазифалар белгиланди.

**Икром УЛКАНБОВЕВ,**  
Наманган ҳарбий прокурорининг ўринбосари,  
адлия майори.

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази раҳбариятининг ташаббуси билан таълим муассасасида сабоқ олаётган ўз хулқи, билимга чанқоқлиги билан бошқа сафдошларига ўрнак бўлаётган 70 нафар тингловчининг Самарқанд шаҳридаги тарихий обидаларга зиёрати ташкил этилди.

## АЖДОДЛАР ХОТИРАСИ ЁД ЭТИЛДИ



Илк манзил мамлакатимиз мустақиллигининг асосчиси бўлган Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислоҳ Каримов мақбараси бўлди. Ундан сўнг эса буюк аجدодларимиз томонидан бунёд этилган шарқ гавҳари ҳисобланмиш “Регистон майдони”даги Тиллакори, Шердор ва Мирзо Улуғбек мақбараларига зиёрат қилинди.

Соҳибқирон Амир Темурнинг ҳарбий юришлари, ҳукмронлик қилган мамлакатларидаги обондончилик ва барпо этилган сарой, боғлар, таълим ва санъатга қаратган эътибори тўғрисида маълумотларга эга бўлиб, тингловчиларда ўзгача таассуротлар шаклланди.

**С.ЖУМАНОВ,**  
ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака  
ошириш маркази бўлим катта офицери, майор.

Тошкент ҳарбий прокуратураси ва Тошкент шаҳар ФВБ ҳамкорлигида бириктирилган ёшлар билан очиқ мулоқот ўтказилди.

## МУЛОҚОТ

Бу галги тадбир аввалгиларидан фарқли ўлароқ дастурхон атрофида бир пиёла чой устида ўтди.

Самимий суҳбат чоғида ёшларнинг муаммолари тингланди.

Жараёнда уларнинг муаммоларини ҳал қилиш, жамиятда ўз ўрнини топишига кўмаклашиш, уларни касб-ҳунарга йўналтириш масалаларига алоҳида урғу берилди.

**Алишер ҚУРБОНОВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси,  
адлия подполковниги.

## ҚАҲРАМОНЛАР ЁДИ БАРҲАЁТ

Энг улуғ ва энг азиз байрам муносабати билан Термиз ҳарбий прокуратураси ва ҳарбий қисм қўмондонлиги вакиллари томонидан 2000-2001 йилларда Сариосиё тумани тоғларида жангарилар билан тўқнашувда хизмат бурчини адо этиш чоғида мардларча ҳалок бўлган сержант Муҳиддин Эштемуровнинг хонадонига ташриф буюрилди.

Марҳумнинг яқинлари билан дилдан суҳбат қурилиб, қаҳрамоннинг ёрқин хотираси ёдга олинди.

**Собир АШРАПОВ,**  
Термиз ҳарбий прокуратураси катта  
терговчиси, адлия подполковниги.

Ҳеч қаерда ишламайдиган 30 ёшли Х.Б. Тошкентда бозор атрофида таниши С.С.ни учратиб қолган. Улар ошхонага кириб овқатланишган. Ташқарига чиққанларида ўзаро жанжал қилишган.

## ЭГРИ ЙЎЛ



Х.Б.уйдагилари билан гаплашишини айтиб, шеригининг телефонини сўраган.

– Мана, фақат узоқ гаплашма, – дея С.С. унга телефонини узатган.

Шу орада Х.Б. дўконга кириб кетган. Ярим соатлардан кейин С.С. ундан телефонини қайтариб беришини сўраган.

– Бермайман, – қатъий жавоб қайтарган Х.Б.

С.С. телефонини олмоқчи бўлганида Х.Б. унинг юзига мушт туширган. Зарбадан ерга йиқилиб тушиб, турмоқчи бўлганида яна икки марта юз қисмига мушт билан урган ҳамда С.С. нинг чўнтагидан 100.000 сўмни ўғирлаб воқеа жойидан яширинган.

– Айбимга икроман, – деди судда судланувчи. – Қилган ишимдан пушаймонман. Зарарни қопладим. Оилавий шароитимни ҳисобга олиб, енгиллик беришингизни сўрайман.

Суд давлат айбловчисининг хулосасини, судланувчи ҳамда жабрланувчининг кўрсатувларини эшитиб ҳукм чиқарди. Х.Б. нинг жиноий қилмиши талончилик, яъни, соғлиқ учун хавфли бўлмаган зўрлик ишлатиб, ўзганинг мулкани очикдан-очик талон-торож қилиш йўли билан қўлга киритишда ифодаланган ҳаракатларига қонуний баҳо берди. У талончилик жиноятини содир этганликда айбдор, деб топилди, 3 йил муддатга озодликдан чеклаш жазоси тайинланди.

**Баҳодир ҚАЮМОВ,**  
Жиноят ишлари бўйича  
Яккасарой туман судининг судьяси.

## ВАТАНГА ҚАСАМЁД

Фавқулдда вазиятлар вазирлиги Академиясида биринчи босқич курсантларининг Ватанга қасамёд қабул қилиш тантанали тадбири ўтказилди.



Унда ФВВ раҳбарияти, Янги ҳаёт тумани ҳокимлиги масъул вакиллари, вазирлик ахборот хизмати ходимлари, ФВВ Академияси профессор-ўқитувчилари, фахрийлари, ҳарбий хизматчилари, курсантлар ва уларнинг ота-оналари, яқинлари иштирок этдилар.

Маросимда Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Хуршид Алибаев ҳамда Академия бошлиғи, генерал-майор Равшан Ҳайдаров сўзга чиқиб, курсантларни табриклаб, маз-

кур тантанали тадбир 1 сентябрь – жонажон ватанимиз мустақиллигининг 33 йиллиги байрамига улашиб кетаётганлиги курсантлар учун фахр ва ифтихор туйғуларини уйғотиш билан бир қаторда, улкан масъулият ва танлаган касбига умрбод содиқликни ҳам талаб этишини ҳамда бугунги тадбир шубҳасиз, уларнинг ҳаётида унутилмас воқеа бўлиб муҳрланиб қолишини алоҳида таъкидладилар.

Шундан сўнг, Фавқулдда вазиятлар вазирининг тегишли буйруғи билан Академияда аъло баҳога ўқиб, ўзининг интизоми, хулқи ва одоби билан ўрнатилган келаётган ҳамда турли фан олимпиадалари, спорт мусобақалари ва танловларда совринли ўринларга сазовор бўлаётган 2-батальон курсанти Жон-Муҳаммад Аҳадов, 4-батальон курсанти Бекжон Улашов ҳамда 5-батальон курсанти Шухрат Юлдашев Фавқулдда вазиятлар вазирлигининг “Амир Темур” номидаги степендияси ва фахрий ёрлиғи билан тақдирландилар.

– Гурур, садоқат ва ориятни энг олий қадрият, деб биладиган йигит учун бу шунчаки расмий тадбир эмас, балки йигитлик шаъни, ор-номусини ўртага қўйиб, ўз зиммасидаги масъулиятли ҳамда шарафли бурчни адо этишга бел боғлаш, аҳду паймон қилиш маросимидир, – дейди биринчи батальон курсанти Озодбек Исмоилов. – Мана бугун мен орзуимга етишиш йўлида ФВВ Академиясига ўқишга кириб, жонажон ватанимизга, халқимизга муносиб фарзанд бўлиб, фуқароларимизнинг ҳа-

ёти, соғлиги ва хавфсизлигини таъминлаш учун бор куч ғайратимни аямай хизмат қилишга тантанали қасамёд қилдим. Бу ҳаётимдаги энг қувончли онлардан бири бўлиб, хотирамда бир умрга муҳрланиб қолади, десам муболаға бўлмайди.



– Олий ҳарбий таълим муассасасига ўқишга кириш ҳар бир йигит кишининг орзуси деб ўйлайман, – дейди биринчи батальон курсанти Хуршид Аъзамов. – Мана бугун Фавқулдда вазиятлар вазирлиги Академиясининг курсанти бўлишдек бахтга муяссар бўлиш билан бирга барча сафдошларим билан илк маротаба Она-ватанимизга қасамёд қилганлигимиздан фахрланамиз.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,  
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.

## САЙЁР ҚАБУЛ

Наманган шаҳар ҳудудида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари, ёшлар, ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларини ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишда ёрдам кўрсатиш ва муаммоли масалаларга қонуний ечим топиш мақсадида, вилоят ФВБ бошлиғи полковник Бунёд Эгамназаров томонидан Наманган шаҳридаги Ёшлар марказида оммавий сайёр қабул ўтказилди.

Бу каби қабулларда жисмоний ва юридик шахсларнинг бир неча йиллардан буён ечимини топмаётган муаммо ва таклифларни жойида ҳал этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қаҳрамон САТТОРОВ,  
Наманган вилояти ФВБ ахборот хизмати бошлиғи, капитан.  
Искандар НУРАЛИЕВ,  
Наманган шаҳар ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази тингловчилари ўртасида “Бир бўлсак – ягона халқимиз, бирлашсак – ватанмиз” шиори остида махсус куч ишлатиш машқлари эстафетаси ташкил этилди.

## КРОСС-ФИТ



Мусобақада еттита жамоа тўртта шарт бўйича беллашди. Бахслар қизгин ва кўтаринки руҳда ўтиб, ҳакамлар ҳайъати жамоаларнинг чиқишларини муносиб баҳолаб бордилар.

Бахслар якунига кўра, 5-гуруҳ тингловчилари оддий аскар М.Бозоров, К.Худоёров, Ш.Дўстматов, Ж.Сотимовлардан ташкил топган “Қалқонлар” жамоаси ғолибликни қўлга киритди.

Ғолиб жамоа ва фаол иштирокчиларга эсдалик совғалари ва фахрий ёрлиқлар топширилди.

У.СОЛИЕВ,  
ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази цикл катта ўқитувчиси, подполковник.  
Ш.МАМАТҚУЛОВ,  
майор.



## ТРЕНИНГ

Қашқадарё вилояти ФВБ тизимидаги хотин-қизлар ўртасида “Ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштиришга қаратилган маънавий-ахлоқий ва мантиқий фикрлашни юксалтириш” мавзусида психологик тренинг бўлиб ўтди.

Ушбу тадбирда фарзанд тарбияси, мантиқий фикрлаш орқали натижадорликка эришиш, муаммоли вазиятлардан чиқиш ҳамда муносабатга киришдаги ўзаро мулоқот этикаси, конструктив ҳамкорлик тажрибаси, жамоа аъзосининг умумий вазифаларни ҳал қилишдаги масъулияти ҳамда жамоа бўлиб ишлаш кўникмаларини шакллантиришга аҳамият қаратилди.

Ҳабиба ЯКУБОВА,  
Қашқадарё вилояти ФВБ хотин-қизлар кенгаши раиси.

Жиззах вилояти ФВБ бошлиғи полковник Равшан Ибрагимов, тизим фахрийлари, шунингдек, Ғаллаорол ва Мирзачўл туманларидаги оталиққа олинган ёшлар билан учрашди. Тадбирда соҳанинг фаолият самарадорлигини оширишга қаратилган ислохотлар, яратилган шарт-шароит ва имкониятлар тўғрисида сўз юритилди.

## ТИЗИМЛИ ИШЛАР

Мирзачўл туманида бўлиб ўтган “Уч авлод” учрашуви давомида қўтқарувчилик касбини эгаллаш ва ўқиш истагидаги ҳар бир инсонга яратилаётган имкониятлар ҳақида маълумотлар берилди.

Сўзга чиққан ўрта авлод вакиллари ва ёшлар бу каби тадбирлар кўплаб ташкил қилиниши таклифини билдириб, бундай тадбирлар ёшларга кекса авлод вакилларининг ибратли сўзлари жонли мактаб вазифазини ўташини билдирдилар ва ўзлари эришган ютуқлар, амалга ошираётган ишлари ҳақида гапирдилар.

Бир гуруҳ фаол ёшларга эсдалик совғалари тантанали равишда топширилди.

Акмал УРАЗМУҲАМЕДОВ,  
Жиззах вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, капитан.

## МАРКАЗДА МУСОБАҚА

ФВБ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида тингловчилар билан “Авария-қўтқарув ва тоғ-қўтқарув тайёргарлиги” фанидан мусобақа ўтказилди.

Мазкур тадбир тингловчиларни билимларини мустаҳкамлаш ва уларнинг маънавий-илмий дунёқарашини шакллантириш, маънавий ва интеллектуал салоҳиятларини ривожлантириш имкониятини берди. Қолаверса, мамлакатимиз равнақи йўлида хизмат қиладиган иқтидорли тингловчилар аниқланди. “Жабрланувчига хавфсизлик камари кийдириш” бўйича биринчи ўринни 5-гуруҳ тингловчилари эгаллашди. “Ажратилган бел ва кўкрак ҳимоя тизимини кийиш ва механик очиладиган муфтали карабиндан фойдаланган ҳолда ўзаро улаш” шarti бўйича биринчи ўрин 3-гуруҳ тингловчиларига насиб этди. “Алпинистик қоядан юқорига кўтарилиш” бўйича эса биринчи ўринни 5-гуруҳ тингловчилари эгаллашди.

Ж.ХОЛМУРОДОВ,  
ФВБ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази цикл катта ўқитувчиси, майор.

## ИЛЛАТГА ҚАРШИ



Тўрақўрғон туманидаги маданият марказида Наманган вилояти ФВБ ходимлари иштирокида “Коррупцияга қарши бирга курашамиз” мавзусида давра суҳбати ташкил этилди.

Унда туман прокурори ўринбосари Сардорбек Мадраҳимов, туман бош имом-хатиби Муҳибилло Худойбердиев, вилоят ФВБ масъул ходими Абдураҳмон Ҳамидов, шунингдек туман ФВ бўлими шахсий таркиби иштирок этди.

Суҳбат давомида асосий мақсад шахсий таркиб ўртасида ҳарбий интизомни мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарлик ва қонун бузилиши, шунингдек, коррупция ҳолатларининг олдини олиш, ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини оширишдан иборат бўлди.

Абдураҳмон ҲАМИДОВ,  
Наманган вилояти ФВБ ШХБ бошлиғи, подполковник.



## E'TIROF

**Mahoratli g'avvos-qutqaruvchilar mashaqqatli vazifalarni bajarishga hamisha shay holatda turishadi.**

Bu jarayonda ular o'zlarining shirin jonlarini xatarga qo'ygan holda suv ostiga tushishadi. Doimiy hushyorlik, sergaklik, jismoniy, ruhiy tayyorgarlikni talab etadigan kasbda xizmat qilayotgan yigitlar orasida FVV Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi suvda qutqaruv otryadi komandiri, kapitan Hasan Shonusratovning faoliyatini ham alohida e'tirof etish mumkin.

Suv ostida texnik ishlarni olib borish, qidiruv-qutqaruvni tashkil qilish bo'yicha yuksak mahorat, bilim-malakaga ega bo'lgan bu inson topshirilgan har qanday vazifaning uddasidan chiqadi. Xizmat faoliyatini boshlaganidan buyon o'zining intiluvchanligi, tirishqoqligi va mehnatsevarligi bilan barchaning hurmatiga loyiq bo'lib kelmoqda. U 2003 – 2007-yillar Toshkent davlat texnika universitetida tahsil olgan. 2009-yildan boshlab, Toshkent shahar FVB RKB M guruhi qutqaruvchisi sifatida xizmatini

boshlagan. Qisqa vaqt mobaynida qutqaruv texnikalari hamda asbob-anjomlarining ishlash tartibi va ulardan to'g'ri foydalanish malakasini egalladi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining buyruq va ko'rsatmalari, o'z funksional majburiyatlarini yaxshi bilish, kundalik xizmat faoliyatida ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qildi, o'z ustida ishladi. Shu bois, 2020-yilda FVV Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi suvda qutqaruv otryadi komandiri darajasiga yetdi.

Garchi X.Shonusratov bu sohadagi xodimlarga havas qilib, g'avvos-qutqaruvchilik kasbini tanlagan bo'lsa-da, avvalboshda ancha mashaqqatli, biroz qo'rqinchli tuyulgan. Lekin oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng qahramonimiz qalbidagi qo'rquvni enggan. Shu tariqa uning tanlagan sohasiga yana e'tibori oshgan.

G'avvoslik ishi bir qarashda oson tuyulishi mumkin, – deydi suhbatdoshimiz. – Ammo bu ishni bajargan odamgina qanchalik mashaqqatli va xatarli ekanligini anglab yetadi. Xizmat faoliyatim davomida qanchadan-qancha cho'kkan insonlarni qidirib topdik. Daryo va kanallarga tushib, suv ostida ish olib boradigan g'avvos-qutqaruvchini tayyorlash uchun kamida 3 – 5 yil vaqt kerak bo'ladi.

H.Shonusratov ayni paytda, malakali mutaxassis sifatida yosh qutqaruvchi-g'avvoslarga sohaning sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Uning samarali xizmatlari e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligi arafasida "Jasorat" medaliga munosib ko'riildi. Vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shishga intiladigan, sport bilan muntazam shug'ullanadigan bu serg'ayrat xodimning g'oyat mashaqqatli, savobli va sharafli vazifasiga omad tilaymiz.

**Rushana ROZABOYEVA,**

*O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.*

Kosonsoy tumani "Namuna" kichik sanoat zonasidagi "TERRY JAR TEXTILE" MCHJda tuman hokimi Dilmurod Qodirov boshchiligidagi sektor rahbarlari hamda viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari ishtirokida yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

## RAHBAR VA YOSHLAR



Unda 100 nafardan ortiq yigit-qizlar ishtirok etib, o'zlarining murojaat va takliflarini bildirdilar.

Muloqot davomida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlarning ayrimlari o'z o'mida yechimini topgan bo'lsa, vaqt va mablag' talab etadigan muammoli masalalar hal etilishi bo'yicha mutasaddi tashkilotlarga yo'naltirildi.

Bundan tashqari, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishida ko'maklashish, yoshlar bandligini ta'minlash, migratsiyada kam daromadli ishda ishlab yurgan yoshlarni o'sha yerda qonuniy va ko'p daromadli ishga joylashtirish yoki vatanga qaytarib, o'z hududidan daromadli ishlarga joylashtirish bo'yicha ham mas'ullarga qator topshiriqlar berildi.

**Azamjon AHMATJONOV,**

*Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.*

## YOSHLAR MASALASI

**Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev tomonidan joylarda otaliqqa olingan yoshlarga birlashtirilgan harbiy xizmatchilar uchun tezkor yig'ilish o'tkazildi.**

Yig'ilishda, viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i U.Sultonov, DXX mas'uli va barcha shahar-tuman shtab a'zolari ishtirok etdilar.

Dastavval, joriy yilning o'tgan 8 oyida otaliqqa olingan yoshlar yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar xususida ma'lumot berildi. Jarayonda muhim masalalar muhokama qilinib, mas'ullarning hisobotlari tinglandi.



So'zga chiqqanlar otaliqqa olingan yoshlar bilan tashkil etilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, bu boradagi mavjud muammolarni joyida hal etish va yoshlar bandligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni jadallashtirish bo'yicha kerakli tavsiyalarini berishdi.

**Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati**



## QAMCHIQ DOVONIDAGI VAZIYATLAR

**"Qamchiq" Maxsus-qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi tomonidan A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'li "Qamchiq" dovoni hududidan o'tgan qismida, "Qamchiq GES" Unitar korxonasida, "Angren-Pop" elektrlashgan temir yo'lining "Chodak" stansiyasi hududida bir qator o'quv mashqlari o'tkazildi.**

Ushbu tadbirlar davomida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati va qutqaruv tuzilmalarining harakatlariga baho berildi. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni tashish va saqlash bilan bog'liq sodir bo'lgan avariylarda hududiy FVDT kuch vositalarining hamkorligi o'rganildi. Ushbu mashg'ulotlar orqali qish mavsumida ob-havoning murakkab sharoitlarida energetika obyektlarini uzluksiz va barqaror ishlashi, aholiga benuqson xizmat ko'rsatishi va xavfsizlik choralarini to'liq ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda sodir bo'lganda zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rish masalalariga jiddiy ahamiyat qaratildi. Xususan, 35 kVli T-2 kuch transformatorida yuz bergan qisqa tutashuv oqibatida yong'in sodir bo'lganda navbatchi dispetcher tomonidan

aloqa tizimi orqali korxonahabari fuqaro muhofazasi boshlig'iga, hududiy FVDT xizmatlariga, yagona energetika tizimidagi dispetcherlik xizmatiga xabar berish tartibi va obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda hamkorlikdagi tashkilotlarning ushbu holatdagi harakatlarini amalga ko'rib chiqildi. Qolaversa, "Chodak" stansiyasidagi elektrchilari kuchlanish ostidagi barcha elektr ta'minotini o'chirib, yerlashtirish tadbirlarini amalga oshirdi. 2 ta yong'in o'chirish brigadasi tomonidan sistemadan chizib chiqayotgan KTEZM moddasining suvli pardasi bilan cheklash ishlari amalga ko'rsatib berildi. Radiasion kimyoviy va tibbiy – biologik muhofaza guruhi tomonidan sistemadan chiqayotgan KTEZMni bandaj yordamida sizib chiqishining oldini olish ishlari bajarildi. Shundan so'ng evakuatsiya guruhi tomonidan jablanuvchilarni xavfsiz joyga olib chiqib tez tibbiy yordam xodimlariga topshirdi. Avariya tiklash guruhi temiryo'l izidan chiqqan sistemani joyiga tiklash ishlarini bajarishdi. KTEZM bilan ishlash maxsus guruhi zararlangan sistemadan butun bo'lgan sistemaga maxsus uskuna yordamida yuklab oldi va sistemani xavfsiz joyga ko'chirdi. Maxsus avtomashina yordamida yerga to'kilgan KTEZM qoldiqlari tozalab olinib, maxsus ajratilgan joyga olib bordi. KTEZM to'kilgan hududga maxsus texnikalar yordamida qum to'kib chiqildi. Tarmoq SENM xodimlari tomonidan tuproq va suvlardan na'munalarni olinib, mobil laboratoriya orqali namunalarga aniqlik kiritildi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quv mashg'ulotlari orqali aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talafotlarning oldini olishga yo'naltirish vazifalari bajarildi.

Shuningdek, qutqaruv tuzilmalari hamda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirishdagi holatiga e'tibor berildi. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuch hamda vositalarining aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlariga, fuqaro muhofazasi rejalarining haqqoniyligini amalga tekshirish, shtab a'zolari va tuzilmalar shaxsiy tarkibini har qanday vaziyatda asosli qarorlar qabul qilish hamda samarali harakat qilishga o'rgatishga e'tibor qaratildi.

**X.BOBONOV,**

*"Qamchiq" MQYOQB boshlig'i, polkovnik.*

## SHAYLIK TEKSHIRILDI



Chinoz tumani hokimi o'rinbosari T.Tojiboyev, tuman FV bo'limi boshlig'i mayor T.Eraliyev hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari tomonidan tumanda FVDT tarkibiga kiruvchi xizmatlarning fuqaro muhofazasi tuzilmalari shaxsiy tarkibi va kuch-vositalari shayligi tekshirildi.

Tekshiruv davomida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

**A.QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
mayor.

**R.ABDULLAYEV,**  
bo'linma boshlig'i, katta leytenant



## O'RGANISHLAR

Chust tumanida FVV mas'ul xodimi polkovnik Bahtiyor Abdurahimov va Namangan viloyati FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan 2024 – 2025 o'quv yili va kuz-qish mavsumiga maktablarni tayyorgarligi o'rganilib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha mas'ul xodimlarga zarur yo'riqnomalar berildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi  
mutaxassisi.

**Mirg'olim KARIMOV,**  
Chust tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
kapitan.

Samarqandda baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi.

## NAMUNALI XIZMAT



Musobaqada 50 dan ortiq mamlakatdan 500 nafarga yaqin sportchi bellashdi.

Ushbu musobaqani xavfsiz o'tkazish ya'ni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida Samarqand, Jizzax, Navoiy Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlari Favqulodda vaziyatlar boshqarmalaridan 6 ta qayiqda 30 nafardan ortiq qutqaruvchi g'avvoslar hamda Samarqand viloyati FVBdan 40 nafardan ortiq xodim bilan namunali xizmat tashkil etildi.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.

## KASBIY TAYYORGARLIK

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi "Jismoniy va qutqaruv tayyorgarlik" sikli tomonidan markazga boshlang'ich tayyorgarlik o'quv kursiga jalb etilgan yong'in-qutqaruv qutqaruvchilari bilan markaz o'quv jarayonini tashkil qilish bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan ochiq va ko'rgazmali mashg'ulotlarni o'tkazish jadvaliga muvofiq tinglovchilar bilan ruxiy tayyorgarlikning olovli yo'lakhasida mashg'ulot o'tkazildi.

Mashg'ulot yakunida amaliy sinovlar tahlil qilindi. Tinglovchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida mehnatni muhofaza qilish qoidalari xususida fikrlar bildirildi.

**M.ASATOV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish  
markazi sikli o'qituvchisi, mayor.

## BOJXONA OMBORLARIDA

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan tumandagi barcha yirik bojxona omborlarida profilaktik o'rganish ishlari olib borilmoqda. Ushbu maskanlarning favqulodda va yong'in xavfsizligi holati va u yerdagi yaratilgan sharoitlar va ishchi xodimlarning fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha bilim va malakali sinovdan o'tkazilmoqda. Maskanlarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan maskan rahbarlariga tegishli vazifa va topshiriqlar berilib, kamchiliklarni bartaraf ettirish choralarini ko'rilmoqda.

**A.XAYITBOYEV,**  
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori,  
katta leytenant.  
**V.PIRMAMATOV,**  
inspektor.

## MAHALLA OBOD – YURT OBOD!

"LUOK" MCHJ Qashqadaryo viloyatidagi OYXTTE bo'limi hamda 6,7-YQQ harbiy xizmatchilari tomonidan bo'lim tasarrufidagi bino va inshootlarning tashqi qiyofasi yaxshilandi hamda ularning hududi va tutash maydonlari tartibga keltirildi. 900m2 hududlarida obodonlashtirish ishlari hamda 750 tup daraxtlarni oqlash, butlash ishlari olib borildi.

"Mahalla obod - yurt obod!" shiori asosida bo'lib o'tgan bu kabi tadbirlarda mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ'ib qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash kabi xayrli ishlar bajarildi.

**S.XAMIDOV,**  
"LUOK" MChJ Qashqadaryo viloyatidagi  
OYXTTEB inspektori, kapitan.

## QURILISH OBYEKTLARIDAGI HOLAT



Qurilish ob'ektlarida yong'in xavfsizligi har tomonlama va doimiy ta'minlanishi uchun maxsus yong'in o'chirish moslamalarining mavjudligi, barcha xodimlar tomonidan xavfsizlik qoidalari rioya qilinishi va mahalliy yong'in-qutqaruv bo'limi bilan kechayu-kunduz aloqani tashkillashtirish zarurligi talab qilinadi. Qurilish maydonchasi va unga tutash hududlarning holatini doimiy ravishda kuzatib borish, shu jumladan, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun vositalar mavjudligini tekshirish va birlamchi yong'in o'chirish vositalarini qayta ko'rib chiqish, ularni ishga yarqililgini, soz holatda ekanligini doimiy monitoring qilish kerak.

Qurilish maydonida yong'in xavfsizligi talablarining bu-zilishi odamlarning sog'lig'ini yo'qotishi, hattoki, o'limiga ham olib kelib, atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Bunday hodisalarning oldini olish uchun yong'in xavfsizligi qoidalari qat'iy rioya qilinishini ta'minlash zarur.

**Odil HAKIMOV,**  
Toshkent viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, katta  
leytenant.  
**Nurislom TESHABOYEV,**  
bo'lim bosh inspektori, katta leytenant.

## MASHQDA QIYIN BO'LSA...

Samarqand viloyatining Kattaqurg'on shahar va tumanida "Boshqaruv organlari, Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy va funksional quyil tizimlarining tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha harakatlari" mavzusida qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashq rejasiga muvofiq, shartli ravishda qo'shni respublika hududida vujudga kelgan zilzila Kattaqurg'on shahar va tumaniga ham xavf soldi. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuman fuqaro muhofazasi tuzilmasi zudlik bilan shoshilinch yig'in o'tkazdi.

Yig'ilishda shahardagi va tumandagi korxonatashkilot va muassasalarning fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ullari tabiiy ofatning ta'siri, jabrlangan fuqarolarga yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish hamda sodir bo'lgan turli vayronagarchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirishdi.

Shundan so'ng shartli ravishda sodir bo'lgan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilgan tuzilmalar va ularga qarashli texnikalarning saf ko'rigi o'tkazildi.

O'quv mashg'uloti davomida ularning shahar va tuman Favqulodda vaziyatlar va boshqa tegishli

tashkilotlar bilan hamkorlikda texnogen tusdagi favqulodda vaziyat haqida o'z vaqtida ogohlantirilgan shahar va tuman Favqulodda vaziyatlar, kommunal soha va tegishli xizmatlar o'zlarining kuch va vositalari bilan shartli ravishda vujudga kelgan yong'inni bartaraf etish bo'yicha kasbiy mahoratlarini ko'rsatishdi.

Uch kun davom etgan mashg'ulotlar davomida jabrlanganlarni qutqarish va ularga tibbiy yordam ko'rsatish, yo'llarni tamirlash, izdan chiqqan kommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash singari o'nlab vazifalar bajarildi.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.



## CHO'KKANDA BIRINCHI YORDAM

Cho'milish-bolalar va kattalar uchun chiniqishning asosiy omili sanaladi. Chunki suv eng kuchli va samarali chiniqtiruvchi vosita. Suv organizmda qon aylanishini yaxshilaydi, oksidlanish jarayonini faollashtiradi, asab va muskul tizimlarining tonusini oshiradi. U tana, oyoq muskullari yelka kamarining bir meyorda rivojlanishiga, nafas olish tizimiga yaxshi ta'sir etadi. Shuning uchun suzishni yoshlikdan, bolalikdan o'rganish zarur va shundagina suzishda uchraydigan favqulodda vaziyatlar, falokatlar va xavf-xatarlarning oldi olinadi.

Suvda cho'kayotgan odamni qutqarish uchun qutqaruv anjomlari va qayiqlardan foydalaniladi, lekin har doim ham qutqaruv anjomlari bo'lavermaydi. Bunday chog'larda cho'kayotgan odamni qutqarishda xavfsizlik choralarini bilish talab etiladi. Agar cho'kayotgan odam hushini yo'qotgan bo'lsa uni suvda olib chiqish ancha qulay bo'ladi, lekin hushini yo'qotmagan odamni qutqarish, qutqaruvchiga ham katta xavf tug'diradi. Chunki cho'kayotgan odam sarosima va vahimaga tushgan holda qutqaruvchiga qattiq yopishishi va uni ham suv ostiga tortib ketishi mumkin. Shuning uchun ham cho'kayotgan odamni changalidan chiqish va qutqarish usullarini o'rganish lozim. O'lim holati faqatgina suvda emas, balki jabrlanuvchi suvdan olib chiqilgandan so'ng ham kuzatilishi mumkin.

Cho'kayotgan odamni tinchlantirib, yelkangizdan mahkam ushlashga undang. Cho'kayotgan odam o'z harakatlarini nazorat qila olmayotgan bo'lsa, yoniga suzib borib, suvga sho'ng'ib, orqasidan ko'tarib



qirg'oqqa chiqaring. Agar cho'kayotgan odam sizning qo'lingiz, bo'yningiz, oyoqlaringizdan ushlab qolsa, darhol sho'ng'ib, jabrlanuvchini sizni qo'yib yuborishiga majbur qiling.

Agar cho'kayotgan inson behush bo'lsa jag'idan ushlab, qirg'oqqa olib chiqing, bu vaqtda uning boshi suv yuzasida bo'lishi kerak. Agar odam cho'kib ket-sa uni suv tagidan izlab hayotga qaytarish haqida o'ylamang. Qirg'oqqa olib chiqilgan jabrlanuvchining birinchi bo'lib o'pkasini suv va boshqa narsalardan tozalash kerak. Buning uchun uning tizzalarini bukib, yotqizing va qusishga majbur qiling. So'ngra jabrlanuvchini yelka bilan yotqizing va og'iz burnini tozalang, zarur bo'lganda reanimatsiya tadbirlariga kirishing, o'tkazilgan tadbirlardan so'ng jabrlanuvchini issiqroq o'rab tezda shifoxonaga yuboring.

Aholining cho'milish uchun mo'ljallanmagan joylar, daryo, soy, kanal va ariqlarning xavfli joylarida cho'milish holatlari uchrab turibdi. Tibbiyot xodimlarining aytishicha, ushbu havzalardagi ifloslangan suv o'tkir ichak infeksiyasi, gepatit, ichburug', ichterlama kabi xavfli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu ayniqsa, bolalar salomatligi uchun juda xavflidir.

**S.RAHIMOV,**

*FVV Fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchisi.*

## FOJIAGA YO'L QO'YMANG!



Avtomashinalarga o'rnatilgan gaz ballonlari bir yilda kamida bir marotaba yuqori bosim ostida sinovdan o'tkazilishi lozim.

Bu gaz ballon devorlarining mustahkamligini, tashqi va ichki deformatsiyaga uchramaganligini aniqlash va yana bir yil foydalanish uchun ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ballon gaz cho'kmalari va boshqa chiqindilardan tozalanib, yuviladi. Amaliyotda esa ko'pchilik haydovchilar gaz ballonini sinovdan o'tkazishdan qochishadi. Oqibatda, u sinovdan o'tkazilmasdan qolib ketaveradi. Ballon mahkamlangan konstruksiyalardagi himoya rezinalari shikastlanadi, temirkonstruksiyalar va tashqi muhit ta'sirida deformatsiya, gaz cho'kmalari ta'sirida ichki emirilish boshlanadi va u portlaydi. Transportda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik, gaz ballonlarini o'z vaqtida nazoratdan o'tkazmaslik ayanchli holatlarga olib keladi.

**Umid YULDASHEV,**

*Yakkasaroy tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.*



## TEMIRYO'LDAGI YANGILIKLAR

**Qashqadaryo viloyat FVB tashabbusi bilan Dehqonobod Temiryo'l stansiyasi hududida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.**

Rejaga ko'ra, kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda tashuvchi vagonda ro'y bergan shartli avariya oqibatida yong'in yuzaga keldi. Uni bartaraf etish uchun jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

**F.QODIROV,**

*Qashqadaryo viloyati FVB bosh inspektori, kapitan.*

## TUSHUNTIRISH ISHLARI

Aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish masalalariga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

Qurilish obyektlarida o'tkazilgan tadbirlarda qurilish jarayonlarida yong'in xavfsizligi qoidalar va normalari amal qilishlari hamda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish va oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Mahallalarda "xonadonbay" tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada jadallashtirilmoqda.

**Shuhrat SAMIGOV,**

*Toshkent shahar FVB OYOXTTEB kichik inspektori, oddiy askar.*

## TARG'IBOT

Yakkasaroy tumani FV bo'limi tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda aholiga yong'inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va cho'kish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida mutaxassislar tomonidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Zilzila, yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harkatalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Faqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda foydalaniladigan maxsus texnikalar va asbob-anjomlar namoyish etilmoqda. Shartli yong'inlarni qisqa muddatda bartaraf etish choralarini ko'rish, jabrlanganlarni qutqarish va tibbiy yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish ishlari bajarilmoqda.

**Elshod FATXUDINOV,**

*Yakkasaroy tumani FV bo'limi bo'linma kichik inspektori, katta serjant.*



## MUROJAATLAR KO'RIB CHIQLDI

Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i podpolkovnik M.Ostonov tomonidan Mirishkor tumani-da sayyor qabul o'tkazildi.

Unda jismoniy va yuridik shaxslarning favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi hamda yong'in xavfsizligi yo'nalishidagi ariza, shikoyat va takliflar ko'rib chiqildi. Yuzaga kelayotgan muammolar, o'z yechimini topa olmayotgan masalalar boshqarma vakolati doirasida hal etilishi belgilab olindi.

**I.HAMIDOV,**

*Qashqadaryo viloyati FVB bo'linma boshlig'i, serjant.*

## YONG'IN XAVFSIZLIGIGA BO'LGAN E'TIBOR

Markaz tomonidan maskanlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilib, targ'ibot tushuntirish ishlari tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga u yerdagi ishchi xizmatchilar bilan yong'inning oldini olishga qaratilgan qoidalar o'rgatilmoqda. Ba'zi fuqarolar yong'in xavfsizligi qoidalarini e'tiborga olmaydi, bu esa yong'inlar sonining ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun aholi o'rtasida yong'in xavfsizligi bo'yicha madaniyat darajasi shakllantirilmoqda.

Ba'zi korxonalarda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmasligi kuzatiladi, bu esa yong'inlar chiqishiga olib kelishi mumkin. Yong'in xavfsizligi sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi muammosini ijobiy hal qilish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

**Firdavs MAXAMMATOV,**

*JKB va NSM OYOXTTEB profilaktika va nazorat bo'linmasi inspektori, mayor.*

**Ma'rufjon XAYITOV,**

*markaz kichik inspektori, katta serjant.*

Ёшлар тарбияси барча даврларнинг энг долзарб масаласи бўлиб келган. Тарихчи Геродот ўзининг Шарққа қилган сафарлари чоғида Миср эҳромларидаги бир битик уни ажаблантирган: “Ёшларнинг тарбияси бузилиб кетяпти. Нима қилмоқ керак?!” Муаррих бу ёзувни ўқиганига ҳам бир неча минг йилдан ошиб кетди. Ёзувнинг битилганига эса ким билсин қанча вақт бўлган? Демак, ёшлар масаласи ҳамisha ўз долзарблигини йўқотмаган, бунга ҳамма даврларда ҳам турли даражада муносабат билдирилган.

Тарбия инсон камолотининг асосидир. Бизда фарзанд тарбияси ҳар бир оила учун асосий вазифа бўлиб келган. Қадимдан халқимиз тарбияга алоҳида эътибор қаратган. Бежиз “Бир болага етти маҳалла ота-она”, дейилмайди. Лекин, афсуски, бугун фарзанд тарбиясини ота-онадан кўра кўпроқ телефон, интернет сайтлари ва ижтимоий тармоқлар бажаряпти, десак, хато бўлмайди. Чунки дарвозасиз шаҳар бўлган ижтимоий тармоқлар ёшларнинг онгу шуурини заҳарлашга чиранмоқдалар. Бундай шароитда ота-онага, устоз ва мураббийларга, барчага ёшларни эътибордан четда қолдирмаслик, уларга ҳар қачонгидан кўра кўпроқ назорат қилиб туриш вазифаси юкланади.

Ҳозирги мафкуравий таҳдидлар кундан-кунга кучаяётган бир пайтда мамлакатимизда ёшлар тарбияси масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ёшларни маънан ва жисмонан баркамол қилиб тарбиялаш, иқтидори ва салоҳиятини рўёбга чиқариш, уларни давлат ва жамиятнинг ривожига кенг жалб этиш, ташаббусларини етарли даражада қўллаб-қувватлашнинг ҳуқуқий асослари, иқтисодий имкониятлари ва ташкилий механизмлари ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий этилмоқда. Чунки XXI аср кишиси маънавий ахлоқий, интеллектуал жиҳатдан ривожланган, мустақил фикрлайдиган бўлиши шу билан бирга, дунёда содир бўлаётган жараёнларга лоқайд бўлмаслиги, ташқи олам билан фаол алоқада бўлиши лозим. Бугунги глобаллашув жараёнлари, фан-техника тараққиёти, инновацион жамиятга бўлган эҳтиёж ёшлар учун қўллаб-қувватлаш яратмоқда. Улар олдида тезкор қарорлар қабул қилиш, инновацион тафаккурни шакллантириш, интеллектуал салоҳиятни ошириш билан бирга миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқ бўлишдек ҳаётий талабларни қўймоқда. Ўсиб келаётган ёш авлодда юксак маънавият, кенг дунёқараш, тафаккурни шакллантириш, огоҳлик ва сергаклик руҳида тарбиялаш давр талабига айланди. Сабаби фикрлаш, таҳлил қилиш, идрок қилиш қобилиятига эга бўлмаган ёш авлод фақат топшириқни бажарувчи манкуртга айланиши эҳтимоли мавжуд. Манкуртлар эса кечаги, бугунги, келгуси кун ҳақида ўйламайди. Улар инсон учун зарур бўлган эрк, ҳақ-ҳуқуқ ва қадриятларнинг қадрига етмайди. Ҳар бир маънавиятчи, онгли инсонда ватанидан фахрланиш туйғуси бўлади.

Ёшларда ватан туйғусини тарбиялашда, аждодларимизнинг ўтмиши, кечинмалари, маданияти жаҳон фан ва маданияти соҳасида тутган ўрни ҳақида маълумотларни ўргатишнинг аҳамияти юқори бўлади. Ёш авлодни жамият талаблари асосида тарбиялашда таълим субъектлари ўртасидаги узлуксизликни ҳамда фан предметлари ўртасидаги интеграцияни таъминлаш зарурати мавжуд. Шахс, миллат, инсоният маъ-

# УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПСИЯСИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МЕХАНИЗМЛАРИ



навиятининг ҳолати ва даражаси жамият тараққиётига турлича таъсир этиши мумкинлиги қадим замонлардан буён маълумдир. Жамият ҳаётидаги барча юксалишлар, тараққиёт имкониятлар, комил инсон шахсининг шаклланиши муайян имкониятлар билан боғлиқ. Шунинг учун жамият тараққиётидаги тушунликлар, турғунлик ҳолатлари, иқтисодий, сиёсий омиллардангина эмас, балки кишиларнинг онги, эътиқоди, дунёқарashi, ахлоқий камолоти даражасидан ҳам излаш керак.

“Тарбия” атамаси XVIII – XIX асрларда болаларнинг нормал ўсиши ва ривожланишини таъминлаш сифатида тушунилан бўлса, XX асрда ушбу атама янги мазмун билан тўлдирилди. Яъни, барча ривожланиш омиллари таъсирида шахснинг шаклланиши, натижада эса маданиятни эгаллаши ва жамият аъзосига айланиши сифатида талқин этилди. “Тарбия” тушунчаси “шаклланиш”, “ижтимоийлашиш” тушунчалари билан бирлашиб, педагогик тушунчадан кўра, кўпроқ психологик ва социологик тушунчага айланди. Ҳар бир халқ ва давлатда амалга оширилаётган тарбия жараёни умуминсоний тарбия тизимининг таркибий қисмидир. Дунёда ижобий хусусиятларидан кўра, кўпроқ миллий тарбия асосларига тобора кўпроқ хавф солаётган глобаллашув жараёни ва оммавий маданиятнинг салбий жиҳатлари инсоният олдида тарбия масаласини глобал муаммолардан бирига айлантирмоқда.

Дарҳақиқат, тарбия мавсумий, маълум бир вақтга мўлжалланган иш эмас, балки жамият ва давлат аҳамиятига молик кечиктириб бўлмас, узлуксиз давом этадиган жараён ва стратегик масаладир. Тарбия жараёни ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро таъсирида амалга оширилаётган динамика тизим сифатида қаралади. Барқарор ахлоқий хулқ-атворга эга, қобилиятли шахсни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш, ўз тақдирини ўзи белгилаш, жамиятда ўзини ўзи мослаштириш, ватанпарварлик, фуқаролик ва маънавий ахлоқий тарбия, соғлом турмуш тарзини

ўқувчиларга сингдириш тарбиянинг асосий мақсади ҳисобланади.

Боланинг шахс сифатида шаклланиш ва ижтимоийлашув даври асосан, мактаб тизимида юз беради. Инсон ва жамиятнинг мавжудлигини таъминлайдиган қадриятлар миллий тарбия туфайли аждодлардан аста-секин авлодларга ўтади. Миллий тарбия атамаси кенг ва тор доирада ишлатилади. Кенг маънода, у инсон шахсини шакллантиришга, унинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий, маданий, маърифий ҳаётда фаол иштирокини таъминлашга қаратилган барча маънавий таъсирлар, тадбирлар, ҳаракатлар, интилишлар йиғиндисини англатади. Демак, миллий тарбия нафақат оила, мактаб, болалар ва ёшлар ташкилотларида олиб бориладиган тарбиявий ишлар, балки бутун ижтимоий тузум ва унинг етакчи ғоялари, ҳатто адабиёт, санъат, кино, оммавий ахборот воситаларини ҳам ўз ичига олади. Тор маънода, миллий тарбия муайян шахснинг маънавий ривожини, дунёқарашини, ахлоқий қиёфасини, эстетик дидини ўстиришига йўналтирилган педагогик фаолиятни англатади. Ҳар қандай тарбия таълим билан чамбарчас боғлиқ ҳолдагина мавжуд бўла олади.

Умуман олганда, охириги йилларда мамлакатимизда миллий тарбияни яхшилаш масаласида тизимли ислохотлар амалга оширилмоқда. 2019 йил 20 июнда “Узлуксиз маънавий тарбия концепсияси”нинг қабул қилиниши бу борада илдам қадамлардан бири бўлди. Мазкур концепсияни амалга оширишнинг устувор йўналишларидан бири аҳолининг фарзанд тарбияси бўйича билимларини, педагогик маданиятини ошириш, фуқароларни узлуксиз маънавий тарбиянинг самарали усуллари ва амалга ошириш шакллари билан мунтазам таништириб бориш ҳисобланади. Концепсия ёш авлод тарбиясидаги ишларни янги босқичга олиб чиқишга қаратилган устувор вазифалар, асосий мақсад ва йўналишларни белгилаб берди. Ушбу йўналишлар мамлакат ёшларини маънан ва жисмонан баркамол қилиб тарбиялаш, иқтидори ва салоҳия-

тини рўёбга чиқариш, уларни давлат ва жамиятнинг ривожига кенг жалб этиш, ташаббусларини етарли даражада қўллаб-қувватлаш мақсадида ҳуқуқий асослар, иқтисодий имкониятлар ва ташкилий механизмларни янада кенгайтиришга хизмат қилади. Концепсия мамлакатимизнинг Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги, “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунлари, халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган ҳужжатлари, хусусан, “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги, “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги ҳужжатларга асосланган. Узлуксиз маънавий тарбия концепсияси, миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, мамлакатимиздаги ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда амалга оширилмоқда. Концепсиянинг мақсади ёш авлодда мустақил ҳаёт учун зарур ижтимоий кўникма ва фазилатларни ёшига мос, босқичма-босқич шакллантириш асосида юксак фазилатли, баркамол авлодни вояга етказишдан иборат. Концепсия оилаларда (ҳомила даври, бола туғилганидан 3 ёшгача), мактабгача таълим 3 – 6(7) ёшгача бўлган давр, (7(6) – 10) ёшгача бошланғич синф, 11–17 (18) ёш), ишлаб чиқаришда фаолият кўрсатаётган ва банд бўлмаган, шунингдек, ўрта махсус касб-хунар ва ОТМ тизимидаги ёшлар каби босқичларда амалга оширилмоқда.

Ҳар бир оила, ота-она, энг аввало, бола тимсолида шахсни кўриши, унинг учун шахсга тегишли барча ҳуқуқ ва эркинликлар таъминлаши борасида ўзининг масъул эканлигини доимо ҳис этиб туриши ниҳоятда муҳим. Маънавий тарбияда миллий ғояга, миллий гурурнинг юксалтиришга хизмат қиладиган тимсоллар, рамзларнинг ҳар бири – катта бир дарслик, кучли тарбия воситаси ҳисобланади. Маънавий жиҳатдан яхши тарбия олган шахс ўз ақли, тафаккури, меҳнати, масъулияти билан онгли равишда, озод ва хур фикрли инсон бўлиб яшайди.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

### Италиянинг жанубий шарқий томонида Розето-Вальфорторе шаҳарчаси мавжуд.

У 1890 йилларда шаҳарча аҳолисининг каттагина қисми Америкага кўчиб ўтган. Улар АҚШнинг Пенсильвания штатида мўъжазгина Розето шаҳарчасини барпо этишган. Кейинчалик бу шаҳарча кенгайиб, аҳолиси ҳам ортиб борди. 1950 йилларда АҚШлик шифокор Стюарт Вулф Розето шаҳарчаси яқинидаги шифохонада 17 йилдан буён ишлаётган ҳамкасбидан бир маълумотни эшитиб ҳайратга тушди. Унинг айтишича, шифохонага турли худудлардан беморлар оқиб келади, аммо Розето шаҳарчасидан олтмиш ёшга кирмаганларнинг бирортаси юрак хасталиги билан мурожаат қилмаган. Бу розетоликларнинг камдан кам касал бўлишига ишора эди. Уша йиллари холестирин миқдорини камайтирадиган дорилар ихтиро қилинмаган ва юрак касалликларининг олдини олиш тадбирлари жорий этилмаган. Инфарктга йўлиқиш АҚШ аҳолиси орасида эпидемия тусини олган ва бу 65 ёшдан кичик инсонлар ўлимининг асосий сабаби бўлган.

Розетоликларнинг соғлом ҳаёти Вулфни ниҳоятда қизиқтириб қўйган. Ва шифокор уларнинг мустақам саломатлиги сири нимада эканини ўрганишга қарор қилган. У талабалар ва ҳамкасбларининг хайрихоҳлиги билан шаҳарча аҳолисининг ўлим ҳодисасига оид гувоҳномаларни ўрганиб чиққан. Урганишлар натижасида розетоликларнинг ҳеч бири 55 ёшга қадар инфарктдан вафот қилмагани маълум бўлган. 65 ёшдан катталар ўртасида ҳам юрак хасталигидан вафот этиш кўрсаткичи жуда паст эди. Шифокор Вулф ёрдамга яқин ҳамкасби Бруни чақириб уйма-уй юрган ҳолда 21 ёшдан катта розетоликлар билан суҳбатлашди. Бу ерда на ичкиликбозлик, на гиёҳвандлик ва на ўз жонига қасд қилиш ҳолати кузатилмаган. Ҳеч кимда ошқозон яра касаллиги йўқ эди.



## РОЗЕТОЛИКЛАРНИНГ СИРИ

Жинойатчилик ҳам деярли учрамасди. Уларда бирор киши нафақахўр эмасди, ҳамма иш билан банд. Энг ҳайратланарлиси, маҳаллий аҳоли фақат қариганлиги учунгина вафот этарди.

Вулф ва Брун аввалига розетоликлар ватанидан олиб келган ўзига хос парҳезга риоя қиладилар ва шунинг учун ҳам ҳавас қилса арзигулик саломатлик соҳибидирлар, деб тахмин қилишди. Аммо бу тахмин ўзини оқламади. Сабаби, Розето аҳолиси таомларни Италиядаги каби фойдали зайтун мойида эмас, холестиринга тўла ҳайвон ёғларида қовурарди. Йил бўйи ширинликларни қанда қилмай тановул қилишарди.

Диетологлар улар таомларини татқиқ қилганида улар истеъмол қиладиган калорияларнинг 41 фоизи ёғлардан иборат эканлиги аниқ бўлди. Розетоликлар эрталаб вақтли туриб спорт билан шуғулланадиган тоифасидан ҳам эмасди. Кўпчилиги семизликдан лопиллаб юрарди. Вулф ва Брун розетоликларнинг тилсими диетода ҳам, спортда ҳам, ирсиятда ҳам яшаш жойларида ҳам эмас, деган хулосага келишди.

Икки шифокор шаҳарни айланиб, розетоликлар ҳаётини чуқурроқ ўрга-

нар экан ва ниҳоят сирнинг моҳияти шаҳар ҳаётининг ўзида, деган хулосага келишди. Розетоликлар қандай қилиб бир-бирлариникига меҳмонга боришларини, италянча гап сотишларини, бир-бирлари учун ажойиб таомлар пиширишларини кузатишди. Шаҳарнинг ижтимоий тизимини ташкил этадиган улкан кланлар, уруғ-аймоқлар билан танишишди. Бир том остида оиланинг уч авлоди яшашини, кексалар ҳурмат иззат қилинишини ҳис этди. Икки минг одам яшайдиган шаҳарчада 22 та жамоавий ташкилотлар бор эди. Бу шаҳарчада тенглик руҳи яшарди. Бойлар ўз бойликларидан кибрланмас, омади чопмаган ҳамшаҳарларига ёрдамлашишар, ташвишлардан халос бўлишга бир-бирларига кўмаклашишарди. Розетоликлар ўз тупроқларидан юртдошлик маданиятини олиб келишган ва бу ерда барқарор ва ишончли ижтимоий тизим барпо этган эдилар. Шу тариқа уларнинг соғлиқлари юртдошлари яратган тинчлик муҳити туфайли сақланиб қолинган эди. Вулф ва Брун тадқиқотлари натижаси жамиятдаги хотиржамлик муҳити инсон саломатлигининг бош омили деган фикрни исботлаб берганди.



## ГЛАДИАТОРЛАР

“Гладиатор” сўзи латинча “gladius” сўзидан келиб чиққан бўлиб, “қилич” деган маънони англатади.

Қадимги Римда гладиаторлар ҳарбий асирлар ва амфитеатрлар ареналарида курашган жанглари учун махсус тайёрланган қуллар эди. Рим гладиаторлари улардан бири ҳалок бўлгунча омма олдида жанг қилишган. Муштлашувлар дастлаб энг катта диний байрамларда ўтказилган. Кейинчалик оддий фуқаролар ҳам кўнгил очадиган энг машҳур томошага айланган. Жанглари анъанаси 700 йилдан кўпроқ вақт давомида сақланиб қолган эди. Гладиаторларнинг илк жанги милoddан аввалги 264 йилда ташкил этилган бўлиб, уч жуфт иштирокчи ўртасида ўтказилди. Ушбу ўйин-кулги 50 йил ўтиб, бирдан машҳур бўлиб кетди. Маркус Лепидус шарафига ташкил этилган дафн маросимида жангнинг бу тури фуқароларни хурсанд қилди. Кейинчалик Рим оломонининг кайфиятини кўтариш учун ташкил этилган гладиаторлар жанглар-

ри расмий равишда оммавий ўйин-кулги сифатида эътироф этилди.

Қолаверса, гладиаторларнинг ҳаёт-мамот учун кечган курашини тирикчилик манбаи ва бойликка айлантирган одамлар бор эди. Бу тоифа ланистлар деб юритилиб, улар қул бозорларидан жисмонан кучли қулларни, афзалроқ ҳарбий асирларни ёки ҳатто жиноятчиларни сотиб олардилар. Уларни жанг хусусиятидан хабардор қилиб, шоу ташкилотчиларига ижарага беришарди. Машғулотлар давомида гладиаторларга эҳтиёткорлик билан ғамхўрлик қилинарди. Гладиаторлар яхши овқатлантирилган ҳамда уларни даволаш учун энг малакали шифокорлар жалб қилинган.

Гладиаторлик касбининг хатарличилигига қарамай, бу ўйинда оддий, аммо кучли одам қуйи табақа вакили бўлса-да, бойиб кетиш имкониятига эга эди. Шу боис, айримлар қонга беланиб, ўлиш эҳтимоли анча юқориликка қарамай, бойлик илинжида таваккал қиларди. Энг кучли ва омадли гладиаторлар Рим оломонининг ва кўпинча олижаноб аёлларнинг, жанг ташкилотчиларининг севги ва эътиборидан ташқари, катта пул мукофотлари олар эди. Томошабинлар ҳам кўпинча майдонга пул, заргарлик буюмлари ва бошқа қимматбаҳо буюмларини тортиқ қиларди.

IV аср бошларига келиб, гладиаторлар жанги аста-секин ўз ўрнини йўқотди. Рим империяси босқинчи қабилаларнинг ҳужумлари остида заифлашгач, иқтисодий инқироз туфайли жанглари ташкил қилиш жуда қимматга тушадиган бўлди. Шундан сўнг ҳам бир мунча вақт жанглари кичикроқ миқёсда олишувлар давом этди, аммо тез орада расман тақиқланди.

Саҳифани **Анвар ҚОБИЛОВ** тайёрлади.



## Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
Ўзбекистон  
Республикаси  
Фавқулдда  
вазирлар  
вазирлиги

**Бош муҳаррир**  
**Азамат СУЮНОВ**

*Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.*

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба кунини чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

**Навбатчи:**  
**А.ҚОБИЛОВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри  
таҳририят нуқтаи назаридан  
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Юнусобод тумани,  
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.  
**Тел.:** (71) 212-69-56  
**Телеграм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташкилотлар учун - 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №165  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади - 9850 нусха